



## INTERNETDAGI FIRIBGARLIKLAR

*Boltiboyeva Ozoda Abdukarim qizi*

*O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti*

*Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Annotasiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi internet firibgarliklarining asosiy sabablari va ularning insonlarga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, shu kabi firibgarliklarni oldini olish, aholining axborot texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish bo'yicha takliflar keltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: internet firibgarligi, jamiyat a'zolari, internet xavfsizligi, onlayn jinoyatlar.*

XXI asr fan va texnologiyalar raqamlashgan bir davr. Axborot texnologiyalari, onlayn xizmatlar (onlayn xaridlar, onlayn ishlar, onlayn kommunikatsiyalar) rivojlanishi insonlarning ko'plab ehtiyojlarini qondirgan bo'lsa-da, internetdan foydalanish tobora kengaygani sari internetdagi firibgarliklar kabi holatlar ham ko'paymoqda. Bu holatlar insonlar uchun jiddiy muammolarga sabab bo'lib, odamlarning moliyaviy va shaxsiy xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Internetdagi firibgarlik - bu internet orqali insonlar manfaatlaridan foydalanib, insonlarni aldab - ularni moliyaviy mablag'larini, shaxsiy ma'lumotlarni, karta ma'lumotlari yoki pul mablag'larini noqonuniy tarzda egallash. Bu turdagi firibgarlar asosan kishilarning ishonuvchanligidan, soddaligidan yoki internetdan foydalanish savodsizligidan, tajribasizlik va shoshqaloqligidan foydalanishadi. Internetdagi firibgarlikning sodir bo'lishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- ijtimoiy tarmoq va shu kabi joylarda shaxsiy ma'lumotlarni oshkora qoldirish.

- bu turdagi firibgarliklardan bexabar qolish.

- soxta sayt va dasturlarning ko'payishi asosiy omillar hisoblanadi.



Internet firibgarligi turlarining batafsil tavsifi:

- Fishing - bu mashhur kompaniyalar, banklar nomidan soxta xabar yuborish, parol yoki karta ma'lumotlari qo'lga kiritish usulidir. "Tezda tasdiqlang.", "Hisobingiz blocklandi" kabi sms xabarlar bilan insonlarni chalg'itadi.

- Soxta internet do'konlari, mashhur brendlar nomidan soxta saytlar, mashhur brendlar nomidan soxta saytlar yaratib, mahsulotni arzon narxda taklif qilib, pul to'langandan so'ng yo'qolib qolish, bloklanish holatlari kuzatiladi.

- Ijtimoiy tarmoqlar orqali firibgarlik, Telegram, Instagram, Facebook kabi platformalardan soxta akkauntlar orqali pul so'rash, yutuqlar va sovrinlar va'da qilish kabilar kiradi. Masalan: Telegramdagi turli soxta saytlar, fayllar (To'ydan video, bu rasmda siz borsiz, bu sizmi siz) kabi viruslar yuborish va Telegram akkauntga ulanish holatlari, shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish kabi holatlar kuzatilmoqda.

- Shaxsiy ma'lumotlar orqali boshqalardan pul talab qilish, nomiga kredit olish kabi holatlar ham uchramoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra so'nggi 5 yilda O'zbekistonda fuqarolari kiber firibgarlikdan jami 159 million dollar yo'qotgan. Shuningdek 2019-2024 yillardagi kiber jinoyatlar soni 68 barobar oshgan. Bunga qarshi quyidagi choralarni ko'rish lozim:

- Ikki bosqichli qulflash, parollash, himoyalashdan foydalanish

- kichik yoshlar va yoshi kattalarga bu firibgarliklar to'g'risida aytish va ma'lumotlar berish kerak.

- Shubhali qo'ng'iroqlar, ma'lumotlar so'rovchi, karta ma'lumotlarini so'rovchi qo'ng'iroqlarga javob bermaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, internet tarmog'idan no'to'g'ri foydalanish va g'araz niyatda, ba'zi qo'shtirnoq ichidagi shaxslar o'z manfaatlari uchun, o'zgalarni ishonchidan foydalanish va uni suiste'mol qilish natijasida shu kabi firibgarliklar avj olib bormoqda. Shuning uchun, bu to'g'risida jamiyatchilik fikrlarini shakllantirish, internet savodxonligini oshirish, ommaviy axborot vositalarida maxfiylikni oshirish lozim.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurov. Internet firibgarliklari va ularga qarshi kurash usullari.
2. O'zbekiston 2025-yilda dolzarb internet-firibgarlik turlari.
3. Kaspersky. Spam and phishing in 2024
4. Kaspersky reports nearly 900 million phishing attempts in 2024.
5. Kun.uz internet sayti. Onlayn qopqon: Ommalashgan virtual firibgarlik turlari va ulardan qanday himoyalaniş kerak.
6. Zamin.uz internet nashri. Uzbekistanis have lost 159 million dollars to cyber fraud in the last five years.